



ASL MUHABBAT

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 3-ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat

umumta'lim maktabi o'quvchisi

Husanova Gulsevar Yoqubjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola chinakam muhabbatning mohiyati, uning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganadi. Maqolada sevgi va muhabbat tushunchalari o'rtasidagi farq, asl muhabbatning belgilari, uning inson ruhiyatiga ta'siri, shuningdek, muhabbatning turli ko'rinishlari (ota-onal muhabbati, do'stlik muhabbati, romantik muhabbat) tahlil qilinadi. Maqola chinakam muhabbat inson hayotini boyituvchi, unga ma'no beruvchi va uni kamolot sari yetaklovchi qudratli kuch ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Muhabbat, sevgi, chinakam muhabbat, ruhiyat, inson, munosabatlar, his-tuyg'ular, ota-onal muhabbati, do'stlik muhabbati, romantik muhabbat.:

Annotatsiya: This article explores the essence of true love, its place and significance in human life. The article analyzes the difference between the concepts of affection and love, the signs of true love, its impact on the human psyche, as well as various forms of love (parental love, friendship love, romantic love). The article emphasizes that true love is a powerful force that enriches human life, gives it meaning, and leads it to perfection.

Kalit so'zlar: Love, affection, true love, psyche, human, relationships, emotions, parental love, friendship love, romantic love.

Quyosh nurlari iliqlashib, qushlar chug'urlashi har tongni musiqadek bezamoqda, chunki diyorimizga o'z sepini yoyib yashillikka burkanadigan, tabiat uyg'onadigan fasl- bahor fasli kirib keldi. Tong saharda shaffof shudring tomchilari yaproqlarda yaltirab, quyosh nurlari ostida jimirlamoqda.



Imona o'n beshinchi bahorini qarshi olib ulgurgan edi. Ularning oilasi zamonaviy oila edi. Unchalik ham dinni taniydigan oila emas di. Oilaning boshi Anvar aka biznesmen. Ayoli Roziya xola esa uy bekasi. Bundan tashqari Iymonaning akasi Ravshan va kichkintoy Zafar ham shu oilaning a'zolari edi. Shu kunlarda Imonaning otasi Anvar akaning uyga mast holda keladigan paytlari ko'paydi. Oila a'zolari sababini so'ragach, kompaniyasida kamomat chiqib bankrotga uchraganini aytib berdi. Anvar akaga qancha taskin berishmasin foydasi bo'lindi Bora bora bu birinchilar kopaya boshladi. Roziya xolaning tanbeh eshitmagan, kaltak yemagan kuni u uchun baxtli kuni bo'lib qoldi...

Imona kitob mutolaasini juda ham yoqtirar edi. Ko'pincha badiiy kitoblar mutolaasini sevib o'qirdi. Shu sababli ham mulohazali, og'irbosiq, vazmin, aqlii qiz edi.

Imona diniy kitoblarni hech ham o'qib ko'rmagan edi. Insonlar nima uchun ehson qilishlari, namoz o'qishlari, haj ziyoratiga borishlari hattoki nega ismini "Imona" qo'yishganini ham bilmasdi. Kitob rastalarining oldidan o'tib borar ekan ko'zi "Iymon" nomli kitobga tushdi. Bu kitobni o'qib ko'rgisi keldi va uni sotib olish uchun kunlik tushlik pullarini yig'a boshladi. Dadasidan ham onasidan ham so'ramadi, negaki ularning hozirgi ahvollarini to'g'ri tushungandi. Kunlar o'tib Imona u kitobni xarid qildi. Uyga borishi bilan darhol kitob mutolaasiga sho'ng'ib ketdi. Bir haftaga ham bormay u kitobni tugatdi. Bu kitob uni Allohnini va Rasulini tanishga, hidoyatga boshlashga sabab bo'ldi. Uning mana shu o'n beshinchi bahorida hayotida yangi sahifa ochilgan edi.

Kechki payt. Kuz fasli. Yengil shabboda dimog'larni qitiqlardi Imona oshxonada kuymalanib bir nimalarnidir pishirayotgan paytda akasi Ravshanning qichqirig'idan sergak tortdi. Akasi Anvar akaning avtohalokatga uchraganini aytdi va bo'g'ziga nimadir tiqilganday bo'ldi. Roziya xola, Ravshan va Imona kiyinib jon holatda shifoxonaga yo'l olishdi. Zafarni esa qo'shnilarini Shohida ayaga berib ketishdi. Shifoxonaga yetib kelishdi. Roziya xola va Imona tinmay duo qillardilar. Anvar akaga umr so'rardilar. Bir haftada Imona otasiga umr so'rab hatmi Qur'on qildi. Alloh ularning nolalarini eshitti. Anvar aka hech qancha vaqt o'tmay oyoqqa



turdi. Ne ko'z bilan ko'ringki Anvar aka umuman o'zgargan edi. Qaytib shayton suvini qo'liga olmaslikka va'da berdi. Ayoli Roziya xoladan ham ancha kechirim so'radi. Bu bir yil moboynida Abdusattorovlar hayotida ancha katta burilishlar sodir bo'ldi. Avvalgi zamonaviy faqatgina nomigagina musulmon bo'lган oiladan asar ham qolmagan edi. Bu orada Imona qo'lidan kelgancha ilm egalladi va o'z kuchi bilan Islom universitetiga Grand asosida o'qishga qabul qilindi. Uning yoshi hozirda yigirmada. Uylaridan sovchining keti uzilmaydi. Nihoyat unga Umar ismli qori yigit sovchi yubordi. U hattoki Imonaning suratini ham ko'rmagan edi. Ikkovlari va Allohga tavakkal qilib turmush qurushdi va bu uchun hech ham afsuslanishmadi. Ular uch farzandlarining rohatlarini ko'rishdi. Qizlari Maryamni yaxshi joyga turmushga berishdi. Ikki o'g'llari Abdulloh va Zubayrni qori yigit qilib tarbiyalashdi. Vaqtlar o'tib Umarning ota onasi birin ketin vafot etdi. Imona xolaning nazarida hojasining tik qaddi bu fojiadan so'ng ancha cho'kib qolgandi...

Imona xola va Umar aka mazmunli umr kechirdilar. Ular birga yashagan hayotlaridan minnatdor edilar. Farzandlari ularni o'tgan yili Umra ziyoratiga yubordilar. Ularning armoni qolmagan edi.

Imona xola xastalanib qoldi. Bir necha kunlardan beri tushiga chiroyli manzalar kirayotgan ekan. Umar aka holsiz ayoliga nazar tashlar ekan sochlaridagi oq tolani ko'rdi. Yillar bunchalar beshavqat-aaa. Imona xola Umar akaga qarab

-Hojam necha kundirki chiroyli tushlar ko'rayapman. Ketadigan paytim bo'lganga o'xshaydi,-dedi xo'rsinib.

-Saodatim, nuryuzligim unday dema hali erta, hali ko'p qiyinchiliklarni birga yengib o'tishimiz kerak,- dedi noiloj.

-Sizdan bir narsa so'ramoqchiman, dadasi men bilan o'tgan umringizga rozimisiz?

-Unday dema,gulyuzligim , hali erta ,- dedi Umar aka yig'laguday bo'lib.

-Iltimos, ayting

- Mingdan ming roziman, Imonam.Seni eslamagan bir nafasim ham bo'lmadi. Ishon, seni jon berar darajada sevdim, saodatim, sen menga berilgan eng oliv ne'matim, eng go'zal nasibimsan. Endi aytchi sen-chi? Sen ham mendan rozimisan???



-Men ham dedi-da " Shahodat" kalimasini aytan, fonyi dunyoga yo'l oldi. Imona xolani shu kuni peshin namoziga chiqarishdi. Eng ko'p Umar akaga qiyin bo'ldi Shu kuni Umar akaning uyida ko'zyoshlar mehmon bo'ldi. Umar aka dod solib yig'lardi. Axir sen meni suyanchig'im edingku sen yo'qsan endi bu yelkalar kimga suyanadi Qara, Imonam,

g'ururim tufayli hech kimga ko'rsatmayotgan ko'zyoshlarimni hamma ko'ryapti Bugun ularni hech kimdan yashirmayapman.

Umar aka ayoliga atab 3 kunda Qur'onne hatm qildi.

Ertasi kuni Juma kuni juma namozida uni so'ngi manzilga kuzatishdi. Umarning ukasi Yusuf aka qator qabrlarga gul ekarkan o'yladi Aka kelinoyim siz uzog'i uch kun tura olar edingiz Bu hal ham ularni jannat erkaklaridan qizg'ondingizaaa aka. Mana asl muhabbat deya qabrlardagi gullarga suv quydi

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fromm, E. (1956). *The Art of Loving*. Harper & Row.
2. Rubin, Z. (1973). *Liking and Loving: An Invitation to Social Psychology*. Holt, Rinehart & Winston.
3. Sternberg, R. J. (1986). *A triangular theory of love*. Psychological Review, 93(2), 119–135.
4. Chapman, G. (1992). *The Five Love Languages: How to Express Heartfelt Commitment to Your Mate*. Northfield Publishing.
5. Karimov, I. A. (1996). *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. Toshkent: "O'zbekiston" ¹ nashriyoti.